

BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI HAMDA ULARNI TARBIYA QILISHNING MUHIM VAZIFALARI

Raxmonova Shoxista Raxmatjonovna

*Quvasoy shahar 27-umumiy o'rta
ta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarning psixologik rivojlanish jarayoni, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ularni tarbiyalashning muhim vazifalari yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va ijtimoiy muhitning bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bola, psixologik rivojlanish, tarbiya, oila, maktab, shaxs, ijtimoiy muhit, psixologiya

KIRISH

Bolalarning psixologik rivojlanishi murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, u tug'ilishdan boshlab o'smirlik davrigacha davom etadi. Ushbu jarayonda bolaning fikrlash, hissiy holati, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Har bir yosh davrida psixologik o'zgarishlar turlicha kechadi va bu tarbiya jarayonida inobatga olinishi zarur.

Bola psixologiyasining rivojlanishiga eng avvalo oila muhiti katta ta'sir ko'rsatadi. Mehr-oqibat, qo'llab-quvvatlash va ijobiy munosabat mavjud bo'lgan oilada bola o'ziga ishonchli, mustaqil va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanadi. Aksincha, nizoli va beqaror muhitda o'sayotgan bolalarda qo'rquv, xavotir va tajovuzkorlik kabi salbiy xususiyatlar paydo bo'lishi mumkin.

Maktab ham bolaning psixologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'qituvchi va tengdoshlar bilan muloqot orqali bola ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi, o'zini jamiyatda tutishni o'rganadi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklar bolaning o'ziga baho berishiga ta'sir qiladi.

Bolalarni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biri — ularning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdir. Halollik, mas'uliyat, hurmat va mehr-oqibat kabi sifatlar bolalikdan singdirilishi kerak.

Yana bir muhim vazifa — psixologik barqarorlikni rivojlantirish. Bola turli hayotiy vaziyatlarda o'zini boshqara olishni, stress va qiyinchiliklarni yengishni o'rganishi lozim.

Shuningdek, bolalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu ularning kelajakda mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Ijtimoiy moslashuvni shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir. Bola jamiyatda o'z o'rnini topishi, boshqalar bilan sog'lom munosabat o'rnatishni o'rganishi kerak.

Bolalarning psixologik rivojlanishi va ularni tarbiyalash murakkab, ammo juda muhim jarayondir. Oila, maktab va jamiyat hamkorligi orqali sog'lom, barkamol va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish mumkin.

Bolaning bir yoshidayoq rivojlanishi jadallashadi: tana vazni uch hissa oshadi, bo'yi 25 sm o'sadi, tishlari chiqadi, ovqat chaynashni o'rganadi, emishdan to'xtaydi, bola oyog'ida turishni, kattalar qo'lini ushlab yoki o'zi mustaqil yurishni biladi. 3 yoshgacha bu ko'rsatkich oshib boradi, qo'llar harakati takomillashadi, mustaqil kiyinadi, yechinadi, yuvinadi, qo'li bilan nozik harakatlarni qiladi, u endi qalam bilan rasm soladi, tugmasini qadaydi, gapirishga o'rganadi, shuning uchun ota-onalar juda sezgir va ehtiyotkor bo'lishlari kerak.

Tana a'zolarining to'g'ri rivojlanishi aniq-ravon so'zlashga o'rganishi, ota-onalarni sabr-toqatli, aqlirasolik bilan ish tutishlariga bog'liqdir.

Bolaning 3-7 yosh oralig'i alohida ahamiyatga ega. Bu davrda bolada zamon tushunchasi haqida to'g'ri tushunchalarni shakllantirish uchun unga yolg'on gapirmaslik, savollariga to'g'ri, jiddiy javob berish kerak.

Bundan tashqari bolalarda gigienik ko'nikmalarni go'dakligidanoq shakllantirish kerak 2-2, 5 yoshidan yuz-qo'l yuvishni eslatib turish, nazorat qilish va ko'maklashish zarur. Tozallikka rioya qilish faqat bolaning sog'lig'ini saqlash uchungina emas balki uni kelajakda ham pokiza bo'lishining omilidir.

Bolani 2 yoshidan tishlarini tozalashga o'rgatish kerak. Buning uchun kichkintoyga bolalar tish cho'tkasi, pastasi berish lozim.

To'g'ri uyushtirilgan kun tartibi katta ahamiyatga ega. Bolani aniq belgilangan vaqtda ovqatlantirish kerak, pala-partish ovqatlantirish bolalar salomatligiga yomon ta'sir qiladi. Yosh bolalarning nerv sistemasi juda ta'sirchan bo'ladi. Bolalar darrov cbarchab qoladilar va dam olishga ehtiyoj sezadilar.

Dam olishning eng muhim turi uxlash bola har doim bir vaqtda uxlashi lozim. Tungi va kunduzgi, uyqu muddati bolaning yoshiga bog'liq nimjon bolalar ko'proq uxlashi lozim, uyqudan oldin ochiq havoda sayr qilish foydali, kechki ovqat yotishdan 1-1,5 soat oldin berilishi kerak.

Bola sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va uni har tomonlama rivojlantirishda chiniqtirish muhim rol o'ynaydi. 2-3 yashar bolalarning toza havo bilan chiniqishi muhimdir. Bundan tashqari quyosh vannalari suv bilan chiniqtirish ham juda foydali.

Yosh bolalarni maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarida tarbiya qilish, ularni oilada tarbiyalashga qaraganda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bola uchun yasli-bog'cha tanlashda "moda" orqasidan quvmaslik, sportni yoki diet tilini o'rgatadigan bog'chani qidirmaslik kerak.

Uyingizga yaqin bo'lgan yasli-bog'cha eng qulay va hammasidan yaxshi bo'ladi. Uy sharoitida ba'zi bir ko'nikmalarni o'zlashtirgan bola bog'chaga borganda qiynalmaydi. Qoshiqdan mustaqil foydalanishni bilgan, o'zlari kiyinadigan va yechinadigan bolalar bog'chada o'zlarini dadil his qiladilar va tez ko'nikadilar.

Bundan tashqari bola hayotini o'yin va o'yinchoqlarsiz, ertaklar va musiqasiz — fantaziyasiz va ijodiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'yin va o'yinchoqlar olamida yayrab yashagan bolaning hayotini ma'naviy to'laqon deyish mumkin. Bolaga o'yinchoq tanlayotganda uning yoshi, qiziqishi va sharoiti ko'zda tutiladi.

Yoshi katta bo'lishi bilan o'g'il bolalar texnikaga oid ayniqsa transport va shu kabi o'yinchoqlarga qiziqishi ortadi, bu o'yinchoqlar bolalarda turli kasb va mutaxassisliklarga qiziqish tug'diradi, ota-ona bu qiziqishni vaqtida payqab, rag'batlantirishi kerak.

Qo'g'irchoqlar qizlarning sevimli o'yinchoqlaridir, 1-2 yoshli qizchalar ko'zi ochilib yumiladigan, «Ingalaydigan qo'g'irchoqlarni yaxshi ko'radilar. 1-4 yoshli qiz bolalarga plastmassadan qilingan kiyimsiz qo'g'irchoqlar ma'qul, qizlar ularni o'zlari cho'miltiradilar, kiyintiradilar, yo'rgaklaydilar.

Sport o'yinchoqlari (koptok, arg'imchoq, kabilar) bolalarni jismoniy baquvvat qilishga xizmat qiladi. Bola tarbiyasi dunyodagi eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi, ammo muvaffaqiyatli ota-ona bo'lishni o'rgatadigan rasmiy ta'lim tizimi mavjud emas. Yaxshi yangilik shundaki, ota-onalar farzandlarining aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va kundalik hayotdagi vaziyatlarni ta'lim imkoniyatlariga aylantirish orqali muhim natijalarga erisha oladilar.

tomonidan suratga olingan *Brain Matters (Miya rivojlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega)* hujjatli filmida farzandni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlashga yordam beradigan beshta oddiy, samarali va ilmiy asoslangan usul tavsiya etiladi.

Birinchi, bola endi tilga kira boshlagan davrdan boshlab uning muloqotiga jiddiy e'tibor berish lozim. Chaqaloq chiqaradigan tovushlar va imo-ishoralar uning asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. Ota-onalar bu jarayonni haqiqiy suhbat sifatida qabul qilib, bolaning har bir signaliga javob berishi kerak. Tadqiqotlarga ko'ra, 2 yoshgacha bola eshitadigan so'zlar uning keyingi so'z boyligi va o'qish ko'nikmalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi, bolaga muntazam kitob o'qib berish uning nutq va til rivojlanishini sezilarli darajada rivojlantiradi. Hatto juda kichik yoshdagi bolalar ham tovushlarni ajrata oladi va yangi so'zlarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladi. Kitob o'qish jarayonida rasm va voqealar haqida savollar berish bolaning fikrlash va muloqot qobiliyatini yanada mustahkamlaydi.

Uchinchi, kundalik hayotdagi oddiy faoliyatlar ham ta'lim imkoniyatidir. Masalan, ovqat tayyorlash, kiyimlarni saralash yoki uy ishlarini bajarish jarayonida

bolaga tushuntirib borish uning nutqi, matematik tasavvurlari va kuzatuvchanligini rivojlantiradi.

To'rtinchidan, o'yin faoliyati juda muhim ta'lim vositasidir. Rolli va ijodiy o'yinlar bolaga boshqalar his-tuyg'ularini tushunish, muloqot qilish, muammo yechish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli o'yinlarni shunchaki ermak emas, balki muhim rivojlanish jarayoni sifatida qarash lozim.

Beshinchidan, ota-ona shaxsiy namuna bo'lishi kerak. Kichik yoshdagi bolalar kattalarning harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qiladi. Ota-onaning nutqi, munosabati va xulq-atvori bolaning shaxsiyati shakllanishida bevosita rol o'ynaydi.

Tarbiyadagi xatoliklar — bu ota-ona tomonidan bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan noto'g'ri yondashuvlar va xatti-harakatlardir. Bunday xatolar ko'pincha yaxshi niyat bilan qilinsa ham, natijada bolaning xulqi, psixologik holati va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir qiladi.

Eng keng tarqalgan xatolardan biri — ortiqcha qattiqqo'llik yoki haddan tashqari erkalatishdir. Ba'zi ota-onalar bolani faqat buyruq va jazolar orqali tarbiyalashga harakat qiladi. Bu holat bolada qo'rquv, ishonchsizlik va o'z fikrini erkin ifoda eta olmaslikni shakllantiradi. Aksincha, haddan tashqari erkalatish esa bolada mas'uliyatsizlik, talabchanlik va mehnatga salbiy munosabatni yuzaga keltiradi.

Yana bir muhim xato — ota-onaning o'zaro kelishmovchiligi. Agar ota va ona tarbiya uslubida bir-birini inkor qilsa, bola qaysi talab to'g'ri ekanini bilmay qoladi. Bu esa uning xulqida beqarorlik va manipulyativ odatlarni shakllantirishi mumkin.

Diqqat yetishmasligi ham tarbiyadagi jiddiy xatodir. Ba'zi ota-onalar farzand bilan yetarli vaqt o'tkazmaydi, uning his-tuyg'ulari va muammolariga befarq bo'ladi. Natijada bola e'tibor izlab noto'g'ri muhitga yoki salbiy guruhlariga qo'shilib ketishi mumkin.

Shuningdek, taqqoslash orqali tarbiyalash ham keng tarqalgan xatolardan biridir. "FaloH bola shunday, sen esa boshqachasan" kabi gaplar bolada o'ziga ishonchsizlik va hasad tuyg'usini kuchaytiradi.

Yana bir muammo — jismoniy jazoni qo'llash. Bu usul qisqa muddatli natija bersa ham, uzoq muddatda bolada agressiya, qo'rquv va ota-onaga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi. Tarbiyadagi xatoliklar ko'pincha bolaning shaxs sifatida to'g'ri shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun tarbiya jarayonida muvozanat, sabr, tushunish va muloqot muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tarbiya — bu jazolash emas, balki yo'naltirish va qo'llab-quvvatlashdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolani rivojlantirish uchun eng muhim omil — bu pul yoki murakkab ta'lim vositalari emas, balki ota-onaning e'tibori, vaqti va faol ishtirokidir. Kundalik hayotdagi oddiy muloqot va munosabatlar orqali ham bola kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E. “Yosh davrlar psixologiyasi”. Toshkent, 2010.
2. G‘oziyev E. “Umumiy psixologiya”. Toshkent, 2010.
3. “Yosh davrlari psixologiyasi” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2023.
4. Nelson C. Brain Matters (hujjatli film materiallari).
5. www.healthychildren.org – bolalar va o‘smirlar rivojlanishi bo‘yicha ma’lumotlar.
6. Ziyonet ta’lim portali materiallari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Bola huquqlari portali” materiallari.